

Rangtasvirda kompozitsiya ishlashning qonun-qoidalari, uslublarini o'rganishning nazariy va amaliy asoslari

Bobur Abdug'ani o'g'li Nabiyev

nabiyevbobur6677@gmail.com

Surayyo Nodirbek qizi Lutfullayeva

Odinaxon Jobirxon qizi Olimjonova

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir kompozitsiyasini ishlashda o'rganilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar, san'at asarlarini yaratishdagi kompozitsiya ishlashning o'ziga xos tomonlari va bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kontrast, yaxlitlik, shakl, rang, kartina, g'oya, xarakter, obraz

Theoretical and practical basics of studying the laws and rules, methods of working composition in painting

Babur Abdugani o'glu Nabiyev

nabiyevbobur6677@gmail.com

Surayyo Nodirbek qizi Lutfullayeva

Odinaxon Jobirxon qizi Olimjonova

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article will talk about the laws and rules that should be studied when working on painting composition, about the specific aspects and stages of working composition in the creation of works of art.

Keywords: contrast, integrity, shape, color, cartoon, idea, character, image

Kompozitsiyaning qonun-qoidalari, usul va vositalari asar mazmuning tasviriy «mag'zi»ni tashkil etadi, kompozitsiyani qurishga yordam beradi, plastikni yechimini ishlab chiqishda zaruriy ahamiyatga kasb etadi.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlari ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, ular san'atning barcha turlari va janrlariga mansubdir. Kompozitsiyaning asosiy qonunlarini bilgan talaba, har qanday badiiy asarni umumiy-ijodiy taxlil qilishi mumkin. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari deb quyidagilarni aytish mumkin: yaxlitlik qonuni, kontrastlar qonuni, tipiklik (yangilik yaratish) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarini g'oyaviy mazmunga bo'ysunishi qonuni.

Yaxlitlik qonuni. Bunda barcha detallar bir butun holatga keltiriladi. Kompozitsiyaning mazkur birinchi qonuni-yaxlitlik qonuniga ko'ra san'at asari yaxlit, bir butun bo'linmas deb idrok etiladi. Yaxlitlik qonunida mazmun markazdagi personajlarni boshqalarni va atrof-muhit bilan hayotiy, aniq topilgan ifodaviyligida ko'rinadi. Shuningdek, yaxlitlik qonuni mazmuni mantiqan va emotsional qurish, tasvirda personajlarning psixologik holati, figuralarning poza (turishi) va harakatlaridagi farqlari va bog'liqlikni tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Mazkur qonunning mohiyatini uning asosiy belgilari va xususiyatlarini taxlil qilish bilan ochib berish mumkin. Yaxlitlik qonunining asosiy belgisi-kompozitsiyaning bo'linmasligi (bir butunligi) - u kichik darajada alohida bo'laklardan iborat bo'lsada, xech qachon bir necha deb idrok etilmasligi tushuniladi. Kontrastlar qonuni. Tabiatda rang kontrastlari (qizil va yashil), tonal kontrastlar (ochlik va to'qlik), shakl kontrastlari (ingichka va yo'g'on), o'lchamdagi kontrastlar (katta va kichik) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Tasviriy san'atda kontrastlik qonuni kompozitsiyaning qonunlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, va har doim kompozitsiyadagi ranglarning vositasi hisoblanib, badiiy asarning tuzilishi va konstruktiv qurilishi, kompozitsiyasiga aloqador vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tipiklik qonuni. Hayotni haqqoniy tasvirlash, badiiy obraz yaratish bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli qonunlardan biri bu tipiklikdir. Borliqning ko'rinishlarini aynan o'zicha taxlil qilish bilan rassom uning mohiyatini aks ettiradi, konkret badiiy obrazlar ko'rinishida tabiiy belgilarini ifodalaydi. Xarakterlardagi va voqea bo'lib o'tayotgan vaziyatdagi tipiklik, mazkur qonunining belgilaridan biridir.

San'at asarini yaratish jarayonida rassom kompozitsiya qonunlarini bilgani holda asarning xarakatlantiruvchi shaxsini rivojlantiradi, umumlashtiradi va tipiklashtiradi, natijada badiiy obrazlar ta'sirchanligi va ifodaviyligini eng yuqori darajaga olib chiqadi.

Ritm. Agar simmetriya elementlarni tinch muvozanatini ta'minlasa, ritm harakatni nazarda tutadi, qaysiki bu harakat to'xtamaydi, cheksizlikkacha davom etadi. Ritm eng avvalo tabiatda mo'jizaviy kompozitsion boshlanma sifatida mavjud.

Mazmunli-kompozitsion markaz. Kompozitsiyaning g'oyaviy mazmunini, eng asosiyni yetarli va aniq ifoda etib beruvchi kartinaning ma'lum bir qismini mazmunli-kompozitsion markaz deb ataladi. Kompozitsion markaz kompozitsiyaning asosiy qonunlariga mos xolda xajmi, yoritilganligi va boshqa vositalari bilan ajralib turadi. Kompozitsiya markazi birinchi navbatda, tomoshabinning diqqatini o'ziga jalb etishi lozim bo'ladi.

Simmetriya. Bunday xolda odatda bir qism ikkinchisi bilan xuddi ko'zgudagidek o'xshaydi. Simmetrik bo'lgan kompozitsiyalarda asosan ajoyib kompozitsion markaz bo'ladi. Odatda u kartina tekisligining geometrik markaziga mos keladi. Agarki chiqish

nuqtasi markaz bilan aralash bo'lsa, xajmiy holda biror qism og'iroq bo'lsa, yoki bu tasvir diagonal bo'yicha qurilsa bu kompozitsiyaning harakatchanligidan darak beradi va qandaydir ma'noda g'oyaviy mazmuni buzib turgandek bo'ladi.

Asimmetriya. Asimetriya tuzilishi jihatidan simmetriyaning aksincha ko'rinishidir. Asimmetrik kompozitsiyada muvozanat va predmetlar orasidagi uzilishlar bilan bir-biriga yaqinlashadi yoki butunlay ajralib ketishini ko'rishimiz mumkin. Muvozanat bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan katta va kichik, ochlik va to'qlik, issiq va sovuq ranglar bilan xosil qilinadi. Kompozitsiyada parallellik. Ma'lumki kartina tekisligi chetlari albatta ramka bilan tugaydi. Tasvir ham, shunga mos holda turli parallel va parallel bo'lmagan chiziqlar bilan kartina g'oyaviy mazmunga moslik va mos emaslik xolatlari bilan bog'lanadi. Parallellikni bo'lishi tasvirda boshqa qiya yoki egik chiziqlarning ta'sirchanligini oshiradi.

Yorug'-soya kompozitsiyaning vositasi sifatida predmetning hajmini tasvirlashda qo'llaniladi. Hajmli shaklning rel'yeflilik darajasi asarning konstruktiv g'oyasini ifodalash uchun aloqador bo'lgan yoritilganlik bilan bog'liq. Shuningdek, tasvirlanuvchining yoritilganlik darajasi rangli va tusli kontrastlar xarakteri uchun, muvozanat uchun qismlarni o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Mahobatlilik ta'suroti berish. Mahobatlilik ta'suroti berishning ko'plab usullari mavjud. Ularning eng muhimrog'i figuralarni fragmental ko'rinishda berishdir. To'liq figuralarni boshdan oyoq tasvirlanadigan bo'lsa, tasvirlangan joy fragmentlashtirilganiga nisbatan kamroq ta'surot beradi. Bu usul ko'plab san'at asarlaridan moxirona qo'llanilgan. Bunga misol qilib, yarim gavdali portretlarni olishimiz mumkin.

Hajmli plastik asarlarda zaruriy rol - havo va rang perspektivasi qonunlari ta'sirlariga ham bog'liq. Xatto oddiy tasviriy savod ham real olamda o'z o'rnini egallagan predmetlarning tasvirlashda perspektiva qisqarishlarini hisobga olishni talab etadi. Bu narsa esa fazoviy planlarning chuqurligi sari xar bir predmetning balandligi, eni va uzunligini qisqarib borishini bildiradi.

Asosiyning ikkinchi planda joylashtirish. Ko'pincha xolarda asosiyning ikkinchi planda ko'rsatish bilan ham kompozitsion echimga erishiladi. Bunda xarakatdagi asosiy shaxs yoki guruh ikkinchi planda ko'rsatiladi. Natijada birinchi plan ham unga bo'ysungan holda tanlanadi. Ijodiy jarayonning yakuniy bosqichi (stadiyasi) - bu asarni bir boshdan sinchiklab ko'rib chiqishdan iborat, bunda ko'p joylar o'zgartirishi, nimadir yordamchi material bo'lib qolishi, nimadir chiqarib tashlanishi mumkin. Ushbu bosqichda rassom ishlayotgan asarini to'liq yaxlit holatda ko'ra olishi muhimdir. U ijodiy ishni yakuniy bosqichlarida nimalar qilish kerakligini, har bir detalning ahamiyati qandayligini his qiladi. Ushbu bosqichda ijodiy ishni yakunlash uchun alohida detallarni umumlashtirish, yaxlitlash ishlari olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, barcha bosqichlar bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan, ular orasida qatʼiy ketma-ketlik yoki chegara ham yoʻq. Baʼzan ayrim qismlar qatnashmasligi ham mumkin. Ijodiy ish yaratish jarayonining bajarilish vaqti asarning gʻoyaviy mazmuni bilan bir qatorda, turli xil tashqi shart-sharoitlar ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymetov.B. Qalamtasvir. "Musiqqa" nashriyoti, 2006
2. Baymetov B.B., Nurtoev Oʻ.N. Tasviriy sanʼat texnologiyasi va nusxa koʻchirish . –T.: Iqtisod-moliya. 2007.
3. Babur, N., Muazzam, N., & Shahrizoda, A. (2024). THE UNIQUENESS OF WORKING WITH GEOMETRIC OBJECTS IN PENCIL DRAWING CLASSES. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(2), 62-66.
4. Бобур, А. Ў. Н. (2022). Тасвирий санъат асарларини яратишда композиция қонунларининг илмий асосларидан фойдаланиш. *Science and Education*, 3(2), 1087-1095.
5. oglu Nabiyev, B. A. Talabalarda kompozisiya tuzish va tasvirlash mahoratlarini takomillashtirishda shakllarni masofada koʻrish texnologiyalarini rivojlantirish.
6. Boltabayevich, B. A. O. N. B. Baimetov. Technologies for Improving the Composition of Students in the System of Higher Pedagogical Education 2021/4. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, (03), 64-70.
7. Komoldinov, S. (2023, December). QALAMTASVIR MASHGʻULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: □Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions□ (Vol. 1, No. 01)*.
8. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 5-8.
9. Komoldinov, S., & Sattarov, F. (2024). Ijodiy asar yaratish boʻyicha metodik tavsiyalar. *Scientific-theoretical journal of International education research*, 2(1), 42-46.
10. Boltaboyev A. BOʻLAJAK OʻQITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions□. □ 2023. □ T. 1. – №.
11. Badirdinov D.Sh. Tasviriy sanʼat darslarini boshqa oʻquv fanlari bilan bogʻlanishi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2021-yil 1-son
12. Adhamjon oʻgʻli, O. M. (2024). BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH, USLUB VA YOʻNALISHLARI, SINFDA

TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 115-121.

13. Bobur Abdug‘ani o‘g, N. (2024). The Theoretical and Practical Importance of Performing a Still Life with a Plaster Socket in Painting Classes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(10), 354-357.